

## XIZMATLAR KO'RSATISHGA( ISHLARINI BAJARISHGA)

### OID SHARTNOMA №10

Bulung'ur tumani

«07» «iyul» 2022 yil

Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan **Bulung'ur tuman maktabgacha ta'limgo'limi** (buyurtmachining nomi)nomidan Ustav asosida ish ko'ruchchi (ustav, nizom, ishonchnoma) F.Xotamov bir tomondan va (rahbarning familiyasi, ismi, otasining ismi) keyingi o'rnlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan "Shijoat quruvchi sexri" X/K (yuridik shaxsning nomi) nomidan Ustav (ustav, nizom, ishonchnoma) asosida ish ko'ruchchi B.Javkanov(rahbarning familiyasi, ismi, otasining ismi) ikkinchi tomondan **Bulung'ur tuman maktabgacha ta'limgo'limiga qarashli 8 dmtt binosining issiqlik tizimini joriy ta'mirlash** (ob'ektning nomi) ob'ektni foydalanishga tayyor holda qurishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

#### I. Tariflar

1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

ijro hujjatlari – naturada bajarilgan ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruktorsiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlarni tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruktorsiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar; qurilish maydoni – mazkur shartnomaga (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnomaga bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi.

Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilari bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdag'i vaqtinchalik binolar va inshootlar; berkitiladigan ishlarni – sifati va aniqligini keyingi ishlarni bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlarni va konstruktorsiyalar bilan berkitiladigan ishlarni; shartnomalar narxini bo'lib chiqish – ishlarning har bir bosqichi va/yoki turlari qiyomatini aniq belgilagan holda shartnomalar bo'yicha ob'ektning umumiy qiyomatini bosqichlarga taqsimalash.

#### II. Shartnomalar mavzusi

2. Pudratchi mazkur shartnomalariga **Bulung'ur tuman maktabgacha ta'limgo'limiga qarashli 8 dmtt binosining issiqlik tizimini joriy ta'mirlash** ob'ektni foydalanishga tayyor holda qurish bo'yicha qurilish ishlarni bajarish majburiyatini oladi. Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovnini amalga oshirish majburiyatini oladi.

#### III. Shartnomalar bo'yicha ishlarni qiyomasi

3. Mazkur shartnomalar bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori (30.06.2022dagi 111160-sod bayonnomasi) bilan tasdiqlangan ishlarni qiyomasi barcha soliqlar, yig'imiralar va ajratmalarini o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **135 093 068 (bir yuz o'triz besh million to'qson uch ming olnish sakkiz)** so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiyomasi uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

qurilish qiyomasi ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rta sidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

#### **IV. Pudratchining majburiyatlari**

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tuti, ishlarni bajarish uchun:
- barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga 1 -ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalid nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o'zining kuchlari va/yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartlariga muvofiq topshirish; 1-ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar, asbob-uskunalar va butlovechi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash;
- qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish;
- Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish; qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;
- qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;
- mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektini foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruktsiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish; qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
8. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

#### **V. Buyurtmachining majburiyatlari**

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:
- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga 1 -ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish; ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlari va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish. Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash; Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish; moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;
- mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 oy davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;
- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

#### **VI. Ishlarni bajarish muddatlari**

10. Mazkur shartnomaning bahosi **135 093 068 (bir yuz o'ttiz besh million to'qson uch ming olmish sakkiz)** so'mni QQS bilantashkiletadi.

"Buyurtmachi" ko'rsatiladigan "Xizmatlar" turkumi summasining 30 foizi miqdorida 2022-yil iyun oyida oldindan haq to'laydi va Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan keyin "Xizmatlar" turkumi summasining 70 foizi miqdorida to'lovni amalga oshiradi.

11. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.
12. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqtini ishlar boshlangan kundan e'tiboran 2 kunni tashkil etadi.

13. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

#### VII. To'lovlar va hisob-kitoblar

14. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlarni umumiy joriy qiymatining 10 foizi miqdorida, ikki oyga teng ulushlarga (oyiga 5 foizdan) bo'lган holda avans o'tkazadi, bu 27 018 613,6 so'mni tashkil etadi

#### VIII. Ishlarni bajarish

20. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlarni ustidan texnik nazoratni amalg'a oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalilaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

21. Texnik auditor ishlarni bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

22. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'lувчи masalalarini hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

23. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

24. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

25. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

26. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtida Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

27. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

28. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'chamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lismi va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

29. Pudratchi geodeziya bo'lismi ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

30. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtinchalik ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

31. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo'lismini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lismini kafolatlaydi.

32. Alovida mas'uliyatli konstruktsiyalar va berkitiladigan ishlarni tayyor bo'lismiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 5 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

33. Qabul qilinadigan konstruktsiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruktsiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiysi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlarni tekshiruvni dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

34. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

35. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig‘isiz bajarilgan bo‘lsa yoki u bu ha xabardor qilinmagan bo‘lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo‘lsa, u holda uning talabi bo‘yicha Pudratchi Buyurtmachining ko‘rsatmasiga muvofiq berkitiladi. ishlarning istalgan qismini o‘z hisobidan ochishga, so‘ngra esa uni tiklashga majburdir. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta’sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining rozilgisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta’sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.
36. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilar tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o‘z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko‘paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta’minalash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 34-bandiniñg ikkinchi xatboshida ko‘rsatilgan hollar bundan mustasno.
- Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to‘laydi.
37. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko‘cha polosasini, shu jumladan yo‘l uchastkalari va yo‘laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko‘rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.
38. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o‘zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo‘lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo‘lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko‘rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o‘tkazilgan sinovlar, materiallar o‘z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog‘liq to‘xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan barcha ma‘lumotlar) aks ettiriladi.
- Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o‘z fikrini bayon qiladi.
- Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko‘rsatilgan kamchiliklarni 30 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko‘rish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

## **IX. Ishlarni qo‘riqlash**

39. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallangungacha va qurilishi tugallangan ob‘ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to‘silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo‘riqlanishini ta’minalaydi.
40. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob‘ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

## **X. Yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari**

41. Agar ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘liq bajarilmasligi tabiat hodisalari ya boshqa yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlар mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta’sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to‘liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.
- Mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlari yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.
42. Agar yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko‘p vaqtga cho‘zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko‘rilishini muhokama qiladilar.
43. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## **XI. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish**

44. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan ojarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

45. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 5 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

46. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

47. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

## **XII. Kafolatlar**

48. Pudratchi: barcha ishlari to'liq hajmda va mazkur shartnomasi shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini; o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, texnik reglamentlar yoki standartlarga muvofiqligini; ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni; ob'ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

49. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 12 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomining kafolatli muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

50. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

51. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlari ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish «Davarxitektqurilishnazorat» organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha iqtisodiy sudga murojaat qilishini istisno etmaydi.

## **XIII. Shartnomani bekor qilish**

52. Buyurtmachi shartnomasi kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda; ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda; Pudratchi tomonidan shartnomasi shartlari qurilish me'yorlari va qoidalari nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

53. Pudratchi:

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'limgan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huq ega.

54. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

55. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnomasi yuboradi.

56. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

57. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

#### XIV. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

58. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fugarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

59. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioxaliga qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

60. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 10 foizi miqdorida jarima to'laydi.

61. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiyligi summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

62. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalari, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 10 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

63. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur muddatda nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalananadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

64. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

## XV. Nizolarni hal etish tartibi

65. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo uladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy u'd tomonidan ko'rib chiqiladi.

## XVI. Alovida shartlar

66. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

67. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alovida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

68. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

69. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahslashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

70. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

71. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

72. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

## XVII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

### XIII. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI «Bajaruvchi»

"Shijoat quruvchi sexri" X/K

(ijrochining nomi)

Manzili: Payariq tuman

Xalqabot MFY

tel/faks \_\_\_\_\_

x/r\_ 20208000304687308001

Bank nomi: Sanoat qurilish bank

XKKM \_\_\_\_\_

MFO: 00994 INN: 300759605

OKONX



Raxbar: B.Javkanov

(imzo)

(byudjet mablaglarini oluvchi nomi)

manzili: Bulung'ur shaxar

tel/faks:

sh/xv 100022860182067091100251008

Bank nomi: Markaziy bank BB

MFO: 00014 INN: 207266838

OKONX:

Raxbar:

F.Xotamov

(imzo)



Moliya Vazirligi yagona G'azna hisobvarag'i

INN 23402000300100001010

INN 201122919 MFO 00014 OKONX 97160

Markaziy bank Toshkent sh BB XKKM

## Булунг'ур туман Мактабгача таълим бўлими



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
SAMARQAND VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI  
BULUNG'UR TUMAN ADLIYA BO'LIMI YURIDIK XIZMAT  
KO'RSATISH MARKAZI

Bulung'ur tumani, Mustaqillik ko'chasi, 2-uy  
tel: 998 66 442 12 66 el.pochta: Bulung'ur yurmarkaz@adliya.uz

### YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

№ CX55763583

#### 1. Loyihaning turi. Shartnoma

#### 2. Loyihaning nomi. Xizmatlar ko'rsatishga (ishlarini bajarishga) oid shartnoma.

"Shijoat quruvechi sexri" X/K rahbari B.Javkanov hamda Bulung'ur tuman maktabgacha ta'lif bo'limi mudiri F.Xotamov o'rtaida Bulung'ur tuman maktabgacha ta'lif bo'limiga qarashli 8-son davlat maktabgacha ta'lif tashkilot binosining issiqlik tizimini joriy ta'mirlash boyicha № 10-sonli pudrat shartnomasi tuzish to'g'risida.

#### 3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Shartnoma loyihasi Bulung'ur tuman maktabgacha ta'lif bo'limi tomonidan 07.07.2022-yilda ishlab chiqilgan shartnomaning umumiyligi summasi **135 093 068** (bir yuz o'ttiz besh million to'qson uch ming olmish sakkiz) so'm bo'lgan № 10-sonli pudrat shartnomasini markazdan huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun 07.07.2022-yilda dasturga kiritilgan.

Ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 28-avgustdag'i "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonun talablariga muvofiq tuzilgan. Shartnomada belgilangan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining pudrat shartnomasi to'g'risidagi normalar bilan tartibga solingan va taraflarning javobgarligi va nizolarni hal qilish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Bulung'ur tuman adliya bo'limi yuridik xizmat  
ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti



Sh.Baxritdinov

**Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 111160 на приобретение Булунгур туман мактабгача таълим булимига карашли 8мтт ни жорий таъмирлаш**

**Способ проведения электронный**

Дата 30.06.2022

Время рассмотрения 30.06.2022 12:39

Конкурсная комиссия Булунгур туман мактабгача таълими булими, (Далее – Комиссия) в составе:

Член комиссии	BAXRIDDINOVA SAYYORA ABDUQODIR QIZI	ходим	МТТ
Председатель комиссии	SAYDALIYEV ILXOM ISMOILOVICH	Инженер	МТБ
Секретарь комиссии	ERGASHIEV SHAXZOD TURG'UN O'G'LII	хисобчи уринбосари	МТБ
Член комиссии	ULUG'MURODOV SIROJIDIN BAXODIR O'G'LII	ходим	МТТ
Член комиссии	MIRZAKULOV AMIRDIN ELBEGIYEVICH	Таъминотчи	МТБ
Член комиссии	SATTAROVA SHOXIDA LAPASOVNA	Касаба уюшмаси аъзеси	МТБ

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 30.06.2022 года № лота 111160.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 80

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту котельной и отопительной системы
Подробное описание	ЖОРИЙ ТАМИР
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	137 150 323.00
Стартовая сумма	137 150 323.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Корхонанинг карздорлиги тугрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: тасдикланган холатда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHIJOAT QURUVCHI SEXRI XK	25	135093068	25	Экспертная		
MEGA SAXOVAT OMAD	25	130150323	25	Экспертная		

рий №2 Ишчи ходимлар ва механизмлар түгрисида умумий маълумот

Текстовое значение

Описание: Тасдикланган холда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHIJOAT QURUVCHI SEXRI XK	30	135093068	30	Экспертная		
MEGA SAXOVAT OMAD	30	130150323	25	Экспертная		

Критерий №3 Корхона түгрисида умумий маълумот ва 2021 йил оборот маблаги баланс молиявий натижа

Тип: Текстовое значение

Описание: тасдикланган холда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
SHIJOAT QURUVCHI SEXRI XK	45	135093068	44	Экспертная		
MEGA SAXOVAT OMAD	45	130150323	35	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
MEGA SAXOVAT OMAD	137 150 323.00	130 150 323.00	29.06.2022 10:42:37	20.00
SHIJOAT QURUVCHI SEXRI XK	137 150 323.00	135 093 068.00	23.06.2022 15:41:22	19.27

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
MEGA SAXOVAT OMAD	68	20	88
SHIJOAT QURUVCHI SEXRI XK	79.2	19.26825	98.46825

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 111160 от 30.06.2022 года на приобретение Булунгур туман мактабгача таълим булимига карашли 8мтт ни жорий таъмирлаш определила победителем:

SHIJOAT QURUVCHI SEXRI XK  
300759605

и резервный исполнитель: MEGA SAXOVAT OMAD (304544886)

голосовали

имисия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
рeдeсeдaтeль кoмиссии	SAYDALIYEV ILXOM ISMOLOVICH	Согласен	
Член комиссии	BAXRIDDINOVA SAYYORA ABDUQODIR QIZI	Согласен	
Члeн кoмиссии	ULUG·MURODOV SIROJIDDIN BAXODIR O·G·LI	Согласен	
Член комиссии	MIRZAKULOV AMIRDIN ELBEGIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	SATTAROVA SHOXIDA LAPASOVNA	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

**СИСТЕМЫ ОТОПЛЕНИЯ В ЗДАНИИ ДОШКОЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ № 8 БУЛУНГУРСКОГО РАЙОНА САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ**

**СПЕЦИФИКАЦИЯ**

Наименование работ и затрат	Единица измерения	Количество		Сметная стоимость		СУМ
		на единицу измерения	по проектным данным	на единиц	общая	
3	4	5	6	7	8	
<b>ОТОПЛЕНИЕ</b>						
1 РАЗБОРКА ТРУБОПРОВОДОВ ИЗ ВОДОГАЗОПРОВОДНЫХ ТРУБ В ЗДАНИЯХ И СООРУЖЕНИЯХ: НА СВАРКЕ ДИАМЕТРОМ ДО 50 ММ	100М	5,4000		798 990		4 314 548
2 ДЕМОНТАЖ РАДИАТОРОВ ВЕСОМ ДО: 80 КГ	100ШТ	0,1000		2 017 908*		201 791
3 ДЕМОНТАЖ КОТЛОВ САМОДЕЛЬНЫХ	100ШТ	0,0700		2 330 750		163 153
4 ДЕМОНТАЖ РАСШИРИТЕЛЬНЫХ БАКОВ	100ШТ	0,0700		7 414 954		519 047
5 УСТАНОВКА КОТЛА ГАЗОВОГО ОТОПИТЕЛЬНОГО	КОТЕЛ	7,0000		994 432		6 961 024
6 СТОИМОСТЬ КОТЛА КОГ-30ВТ (ГАЗ+ТВЕРДОЕ ТОПЛИВО)	ШТ	1,0000		5 882 734		5 882 734
7 СТОИМОСТЬ КОТЛА КОГ-40ВТ (ГАЗ+ТВЕРДОЕ ТОПЛИВО)	ШТ	6,0000		6 688 000		40 128 000
8 УСТАНОВКА НАСОСОВ ЦИРКУЛЯЦИОННЫХ	НАСОС	2,0000		297 589		595 177
9 СТОИМОСТЬ НАСОСА ЦИРКУЛЯЦИОННОГО	ШТ	2,0000		871 080		1 742 160
10 КЛАПАНЫ ОБРАТНЫЕ ПОДЪЕМНЫЕ МУФТОВЫЕ 16Б1БК ДЛЯ ВОДЫ НА ДАВЛЕНИЕ 1.6 МПА /16 КГС/СМ2/, Д 20 ММ	ШТ	7,0000		33 768		236 376
11 КЛАПАНЫ /ВЕНТИЛИ/ ПРОХОДНЫЕ МУФТОВЫЕ 15КЧ18П2 ДЛЯ ВОДЫ НА ДАВЛЕНИЕ 1.6 МПА /16 КГС/СМ2/, Д 20 ММ	ШТ	7,0000		27 300		191 100
12 КЛАПАНЫ /ВЕНТИЛИ/ ПРОХОДНЫЕ МУФТОВЫЕ 15КЧ18П2 ДЛЯ ВОДЫ НА ДАВЛЕНИЕ 1.6 МПА /16 КГС/СМ2/, Д 15 ММ	ШТ	7,0000		5 510 045		6 612 054
13 ПРОКЛАДКА ТРУБОПРОВОДОВ ОТОПЛЕНИЯ ИЗ СТАЛЬНЫХ ВОДОГАЗОПРОВОДНЫХ НЕОЦИНКОВАННЫХ ТРУБ ДИАМЕТРОМ 40 ММ	100М	1,2000		5 246 882		9 444 388
14 ПРОКЛАДКА ТРУБОПРОВОДОВ ОТОПЛЕНИЯ ИЗ СТАЛЬНЫХ ВОДОГАЗОПРОВОДНЫХ НЕОЦИНКОВАННЫХ ТРУБ ДИАМЕТРОМ 32 ММ	100М	1,8000		3 566 419		5 706 271
15 ПРОКЛАДКА ТРУБОПРОВОДОВ ОТОПЛЕНИЯ ИЗ СТАЛЬНЫХ ВОДОГАЗОПРОВОДНЫХ НЕОЦИНКОВАННЫХ ТРУБ ДИАМЕТРОМ 25 ММ	100М	1,6000		3 041 156		2 432 925
16 ПРОКЛАДКА ТРУБОПРОВОДОВ ОТОПЛЕНИЯ ИЗ СТАЛЬНЫХ ВОДОГАЗОПРОВОДНЫХ НЕОЦИНКОВАННЫХ ТРУБ ДИАМЕТРОМ 20 ММ	ШТ	0,8000		11 970		383 040
17 АДАПТЕР 20X25	ШТ	32,0000		11 813		236 250
18 ОТВОД СТАЛЬНОЙ Д-40	ШТ	20,0000		6 542		130 830
19 ОТВОД СТАЛЬНОЙ Д-32	ШТ	20,0000		4 200		84 000
20 ОТВОД СТАЛЬНОЙ Д-25	ШТ	20,0000		2 625		52 500
21 ОТВОД СТАЛЬНОЙ Д-20	ШТ	32,0000		6 825		218 400
22 РЕЗЬБОЧКА СТАЛЬНАЯ Д-20	100КВТ	0,2450		3 016 774		739 110
23 УСТАНОВКА РАДИАТОРОВ БИМЕТАЛЛИЧЕСКИХ	СЕКЦИЯ	140,0000		60 328		8 445 885
24 РАДИАТОРЫ БИМЕТАЛЛИЧЕСКИЕ СЕРИИ "AVANGARD", ВЫСОТА 50 СМ, ЦВЕТ БЕЛЫЙ, ТЕПЛОВОЙ ПОМЕНАД 1-Й СЕКЦИИ 178 ВТ	100М2	0,8640		1 708 939		1 476 523
25 МАСЛЯНАЯ ОКРАСКА ТРУБОПРОВОДОВ ЗА 2 РАЗА	КМ	0,0280		63 066 992		1 765 876
26 ДЫМОВАЯ ТРУБА ДЛЯ КОТЛОВ АСБЕСТОЦЕМЕНТНАЯ Д=150	1 М3	3,8400		478 985		1 839 302
27 ИЗОЛЯЦИЯ ТРУБОПРОВОДОВ: МАТАМИ МИНЕРАЛОВАТИЧЕСКИМИ ГЛАВНОГО СТОЯКА, РАСШИРИТЕЛЬНОГО БАКА И ТРУБЫ ДО ТЕПЛОПУНКТА L=4,0М	100М2	0,2460		192 442		47 341
28 ОГРУНТОВКА МЕТАЛЛИЧЕСКИХ ПОВЕРХНОСТЕЙ ГРУНТОВКОЙ ГФ-021	100М2	0,2460		211 680		52 073
29 МАСЛЯНО-БИТУМИНОЕ ПОКРЫТИЕ [ПЕРВЫЙ СЛОЙ]	100М2	0,2460		199 447		49 064
30 МАСЛЯНО-БИТУМИНОЕ ПОКРЫТИЕ [ВТОРОЙ СЛОЙ]	100М2	0,4250		1 706 475		725 252
31 ОБЕРТЫВАНИЕ ПОВЕРХНОСТИ ИЗОЛЯЦИИ РУДОНИМИ МАТЕРИАЛАМИ НАСУХО С ПРОКЛЕЙКОЙ ШИВОВ (СТЕКЛОПЛАСТИК)	СЕКЦИЯ	140,0000				
ТЕПЛОВОЙ ПУНКТ						
32 РАЗРАБОТКА ГРУНТА ВРУЧНЮЮ В ТРАННИЕХ ГЛУБИНОЙ ДО 2 М БЕЗ КРЕПЛЕНИЙ С ОТКОСАМИ, ГРУНТЫ ГРУНТОВ 2	100М3	0,0106		2 795 448		29 632
33 УСТРОЙСТВО ЛЕНТОЧНЫХ ФУНДАМЕНТОВ БЕТОННЫХ ИЗ БЕТОНА М-100	100М3	0,0178		43 694 718		777 766
34 КЛАДКА СТЕН ИЗ ШЛАКОБЛОКОВ ПРИ ВЫСОТЕ ЭТАЖА ДО 4 М	М3	4,1280		244 133		1 007 782
35 УСТРОЙСТВО ПОЯСОВ В ОПАЛУБКЕ ИЗ БЕТОНА М-200	100М3	0,0048		30 049 273		144 237
36 АРМАТУРА ДЛЯ МОНОЛИТНЫХ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ КОНСТРУКЦИЙ В ВИДЕ СЕТОК И ПЛОСКИХ КАРКАСОВ, ГЛАДКАЯ КЛАССА А1, ДИАМЕТРОМ 6 ММ	Т	0,0064		1 410 870		9 030
37 АРМАТУРА ДЛЯ МОНОЛИТНЫХ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ КОНСТРУКЦИЙ В ВИДЕ СЕТОК И ПЛОСКИХ КАРКАСОВ, ГЛАДКАЯ КЛАССА А1, ДИАМЕТРОМ 10 ММ	Т	0,0384		1 692 902		65 007
38 УСТАНОВКА СТРОПИЛ И ДЕРЕВЯННЫХ КОНСТРУКЦИЙ	М3	0,1760		3 452 851		607 702
39 УСТРОЙСТВО КРОВЕЛЬ ИЗ ВОЛНИСТЫХ АСБЕСТОЦЕМЕНТНЫХ ЛИСТОВ ОБЫКНОВЕННОГО ПРОФИЛЯ ПО ДЕРЕВЯННОЙ ОБРЕШЕТКЕ С ЕЕ УСТРОЙСТВОМ	100М2	0,1000		6 831 100		683 110
40 УСТРОЙСТВО ПОДСТИЛАЮЩИХ СЛОЕВ БЕТОННЫХ	М3	0,3040		400 692		121 810
41 ШТУКАТУРКА ПОВЕРХНОСТЕЙ ИЗВЕСТКОВЫМ РАСТВОРОМ ПРОСТАЯ ПО КАМПЮ СТЕН СТЕН ВНУТРЕННИХ	100М2	0,1392		1 761 180		245 156
42 ИЗВЕСТКОВАЯ ОКРАСКА ВОДНЫМИ СОСТАВАМИ ВНУТРИ ПОМЕЩЕНИЙ ПО ШТУКАТУРКЕ	100М2	0,1392		205 543		28 612
43 УСТАНОВКА МЕТАЛЛИЧЕСКИХ ДВЕРЕЙ СО СТОИМОСТЬЮ	М2	1,8900		636 850		1 203 646
44 УЛУЧШЕННАЯ ШТУКАТУРКА ЦЕМЕНТНО-ИЗВЕСТКОВЫМ РАСТВОРОМ ПО КАМПЮ СТЕН	100М2	0,1392		1 979 031		275 481
45 ОКРАСКА ФАСАДОВ ИЗВЕСТКОВАЯ ИТОГО ПРЯМЫЕ ЗАТРАТЫ: ПРОЧИЕ ЗАТРАТЫ И РАСХОДЫ ПОДРЯДЧИКА -18,1% ИТОГО СТОИМОСТЬ СТРОИТЕЛЬСТВА НДС - 15% ИТОГО СТОИМОСТЬ СТРОИТЕЛЬСТВА С НДС	100М2 СУМ СУМ СУМ СУМ СУМ	0,1392 0,1392 149 344 106 878 051 10 685 182 117 472 233 17 620 835 135 093 068				

ЧП "ШИЖОАТ КУРУВЧИ САРДАР" ДИРЕКТОР



Страница - 1



*Юридик шахсни давлат руйхатидан  
утказиш түгрисида*

*ГУВОХНОША.*

Регистрдаги тартиб раками № 32

13 марта 2008 года

Мазкур гувахнома юридик шахс "SHIJOAT QURUVCHI SEXRI"  
Xususly korxonasi

(узбек тилинда түзилген)

ТХН

Ташкидий хукукий шакли

1010

МШ

Муджидлик шакли

114

МХОЕТ

Почта мавзали

1718224815

КТУТ

Юридик шахс коди

22302931

ХХТУТ

Тармок коди

61110

СТИР

Солик тудовчининг идентификация раками

300 759 605


Пайарик туман хокимлиги тадбиркорлик  
субъектларини руйхатдан утказиш  
инспекция бошлиги

Р.Ялгаров



REDMI NOTE 9 PRO  
MI DUAL CAMERA

2019/10/1 06:50



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

1979  
FURKAK  
JAVKANOV  
SSM  
BAXTIYOR  
QASHMING (SSM)  
ABDULJALOLOVICH  
TUGLGASHE-SARASH  
PATARIQ TUMANI  
TUGLGASHE-SARASH  
30.1.1979

PAYARIQ TUMANI  
TUGILLGANJUVI  
PAYARIQ TUMANI  
VILLOYATI PAYARIQ  
TUMANI LIB  
SAMARQAND  
O'ZBEK  
FON: 090-948-0000  
FAX: 090-948-0001  
E-mail: [payariq@tumanlib.uz](mailto:payariq@tumanlib.uz)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI / REPUBLIC OF UZBEKISTAN	
SHAXSIY IRZO (WOMEN'S SIGNATURE)	PASPORT DAHMASI / PASSPORT STAMP
DAVLU / JOHN COUNTRY CODE	A A 56687097
TURJ TYPE	UZB
PASSPORT	P
PASPORT	P